

## The Role of Teachers in Modern Education and the Spiritual Development of Society

### ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QITUVCHINING ROLI VA JAMIYATNING MA'NAVIY RIVOJLANISHI

*Akhmadjanov Doniyor Bakhtiyor ogli*

*Associate Professor "Physical Education" Department, Karshi State Technical University*

**Abstract:** *This article analyzes the development of a modern teacher concept in history education and examines the issues of spiritual development in society and the establishment of just governance based on the socio-philosophical perspectives of Eastern thinkers. It provides a comprehensive discussion of the requirements for teachers in contemporary education, emphasizing ethical excellence, interdisciplinary approaches, and the role of innovative technologies. Additionally, the study explores the integration of national and universal values in the improvement of the educational process, the development of critical thinking, the formation of civil society, and the principles of ensuring social stability.*

*Particular attention is given to the moral upbringing and spiritual development of youth, highlighting the significance of ethical values in shaping future generations and the destiny of humanity. Furthermore, the article addresses contemporary global challenges, including environmental and social issues, by proposing solutions through a spiritual perspective. It underscores the importance of moral leadership and ethical responsibility in addressing these pressing concerns.*

**Key words:** *History education, modern teacher, socio-philosophical perspectives, ethical excellence, innovative technologies, interdisciplinary approach, national and spiritual values, critical thinking, civil society, global challenges, environmental issues, social justice, educational process.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini ishlab chiqish va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida jamiyatning ma'naviy rivojlanishi hamda adolatli boshqaruvni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar, axloqiy yuksaklik, fanlararo yondashuv va innovatsion texnologiyalarning o'rni atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, ta'lim jarayonini takomillashtirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va jamiyat barqarorligini ta'minlash tamoyillari ko'rib chiqilgan. Maqolada yoshlar ma'naviyati va axloqiy tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, axloqiy qadriyatlar yosh avlodning kamoloti va insoniyat kelajagi uchun muhim omil ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, zamonaviy global muammolar, jumladan, ekologik va ijtimoiy masalalarga ma'naviy yondashuv orqali yechim taklif etilib, ma'naviy yetakchilik va axloqiy javobgarlikning ahamiyatiga urg'u berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarix ta'limi, zamonaviy o'qituvchi, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, axloqiy yuksaklik, innovatsion texnologiyalar, fanlararo yondashuv, milliy va ma'naviy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, fuqarolik jamiyati, global muammolar, ekologik muammolar, ijtimoiy adolat, ta'lim jarayoni.*



## Introduction

Hozirgi ta'lim tizimida tarix o'qituvchisi faqat bilim beruvchi shaxs emas, balki yosh avlodning dunyoqarashini shakllantiruvchi, ularda vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalovchi yetakchi sifatida muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarga o'z tarixiy merosini qadrlashni o'rgatish bilan birga, global tarixiy jarayonlarni anglash va ulardan zarur saboqlarni chiqarishga yo'naltiradi. Zamonaviy tarix o'qituvchisi doimiy ravishda o'z bilim va pedagogik mahoratlarini takomillashtirib borishi, shu bilan birga, axloqiy qadriyatlarni talqin qilish va singdirish borasida tashabbuskor bo'lishi kerak. U nafaqat ma'lumot yetkazuvchi, balki yoshlar uchun ma'naviy yo'l boshchi va yetakchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shuningdek, tarixiy voqealarni xolis tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda markaziy vazifani bajaradi.

Globalashuv va ijtimoiy o'zgarishlar davrida ta'lim jarayoni nafaqat fanlarni o'qitish, balki shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy barkamollikni ta'minlashni ham ko'zda tutadi. Tarix fanini o'qitish jarayonida uni o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zamonaviy metod va yondashuvlardan foydalanib, dars jarayonini interaktiv va ta'sirchan qilish talab etiladi. Shu bilan birga, ta'lim mazmuni milliy qadriyatlar va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligiga asoslanishi kerak. Bu yosh avlodning tarixiy merosni hurmat qilishi va dunyo miqyosidagi jarayonlarni to'g'ri anglashiga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish esa o'qitish sifatini yanada oshiradi. Virtual ekskursiyalar, multimediy vositalari, onlayn platformalar va interaktiv dars usullari orqali o'quvchilarga tarixiy voqealarni ko'rgazmali va jonli tarzda yetkazish mumkin. Bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning mustaqil izlanishi va tanqidiy fikrlashiga ham turtki beradi.

Zamonaviy ta'limda tarix nafaqat o'quv predmeti, balki jamiyatning intellektual va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega bo'lgan vosita sifatida ko'riladi. Shuning uchun bu sohada faoliyat yurituvchi o'qituvchilar nafaqat o'z fanini mukammal biladigan, balki axloqiy va kasbiy jihatdan yuqori malakaga ega mutaxassislar bo'lishi kerak. Ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar jamiyatdagi tezkor o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va globalashuv jarayonlari ta'sirida doimo rivojlanib bormoqda. Shu sababli, tarix ta'limida zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini shakllantirish va takomillashtirish nafaqat ta'lim sifatini yaxshilash, balki o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va jamiyatning ma'naviy taraqqiyotiga hissa qo'shish uchun ham zarur hisoblanadi.

Sharq sivilizatsiyasi insoniyat tarixida eng boy madaniy va ilmiy merosga ega hodisalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ming' asrlar davomida bu hudud ilm-fan, falsafa, adabiyot, arxitektura, san'at va siyosat sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan. Sharq mutafakkirlari ishlab chiqqan ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar nafaqat ushbu mintaqada, balki G'arb sivilizatsiyasida ham katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, ular jamiyat, inson ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar, boshqaruv va adolat kabi masalalarni chuqur tahlil qilib, insoniyat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan. Sharq faylasuflari jamiyatning ma'naviy yuksalishini va insonning shaxsiy kamolotini asosiy maqsad sifatida ko'rgan. Ularning ta'limotlarida inson axloqiy tarbiyasining jamiyat barqarorligi va farovonligidagi roli alohida ta'kidlangan. Ular jamiyatning umumiy rivoji va inson kamolotining o'zaro bog'liqligini tahlil etib, ma'rifat va ilmga asoslangan jamiyat qurishga intilishgan.

Sharq mutafakkirlarining g'oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, zamonaviy jamiyatlarning axloqiy-etik tamoyillari va rivojlanish strategiyalari uchun nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda. Ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar inson va jamiyat munosabatlarini mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va taraqqiy etishga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar faqat o'tmish davrlaridagina emas, balki bugungi jamiyat



hayotida ham muhim o‘rin tutadi. Ular inson ma’naviyatini rivojlantirish va jamiyatda mustahkam barqarorlikni ta’minlash yo‘lida nazariy asos vazifasini bajaradi. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, barqarorligi va adolatli boshqaruvi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mavjudligi bilan uzviy bog‘liq. Sharq falsafasida ishlab chiqilgan konsepsiyalar jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro hurmatni mustahkamlash, adolatli boshqaruvni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, Sharq mutafakkirlarining qarashlari ta’lim tizimida ham o‘z aksini topgan. Ularning g‘oyalari kelajak avlodni shakllantirishda muhim o‘rin egallab, o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy saviyasini yuksaltirishda katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu g‘oyalar inson kamolotini ta’minlash, shaxsning axloqiy meyorlarga amal qilishi va jamiyatning umumiy barqarorligiga erishish kabi tamoyillarning asosini tashkil etadi. Sharq falsafasi va ijtimoiy ta’limotlari shakllanishida qadimgi sivilizatsiyalar – Misr, Vavilon, Hindiston va Xitoy madaniyatining ta’siri katta bo‘lgan. Qadimgi Misrda jamiyat va davlat boshqaruvi, odillik va adolat tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Vavilondagi Hammurapi qonunlari esa huquqiy tizimni shakllantirishda ilk namunaviy modellardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu qadimiy sivilizatsiyalar ijtimoiy hayot va davlat boshqaruviga oid dastlabki fikrlarni ilgari surgan bo‘lsa-da, ularning ta’siri keyinchalik Sharq falsafasi va ijtimoiy fikrlarining rivojiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Sharq mutafakkirlarining ta’limotlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy jamiyatdagi axloqiy-etik munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish strategiyalarining asosini tashkil etadi. Ularning fikrlari nafaqat tarixiy saboq sifatida, balki kelajak taraqqiyoti uchun muhim dasturilamal sifatida ham ahamiyatlidir.

Globalashuv jarayoni ta’lim tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, milliy ta’lim jarayonlarini umuminsoniy qadriyatlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishni talab etmoqda. Bugungi o‘quvchilar nafaqat milliy tarixi, balki xalqaro jarayonlarni ham tushunishga muhtoj. Ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va global tendensiyalarni xolis baholash qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Zamonaviy tarix o‘qituvchisi globalashuvni hisobga olib, milliy qadriyatlarni xalqaro kontekstda tushuntirishi lozim.

Zamonaviy o‘quvchilar interaktiv, raqamli va ijodiy yondashuvlarga ehtiyoj sezadi. Ularning ta’lim jarayonidan kutgan asosiy talablari mustaqil izlanish imkoniyati, ijodiy o‘rganish va tarixni zamonaviy voqealar bilan bog‘liq holda tushunishdan iborat. Bunday ehtiyojlarni qondirish uchun o‘qituvchi virtual ekskursiyalar, multimedia resurslari va keys-stadi metodlaridan samarali foydalanishi kerak.

Tarix ta’limi nafaqat o‘tmish haqida ma’lumot berish, balki yosh avlodda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Ushbu jarayonda ta’limning mazmuni va metodologiyasi ham zamon talablariga mos ravishda o‘zgarib borishi lozim.

Axloqiy yondashuv ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘quvchilarda vatanparvarlik, adolat va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchi dars jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning tarixiy voqealarga ma’naviy-axloqiy nuqtai nazardan yondashishlarini ta’minlashi lozim. Tarix nafaqat faktlarni o‘rganish, balki jamiyatning ma’naviy asoslarini mustahkamlash uchun ham xizmat qilishi kerak.

Tanqidiy yondashuv esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va tarixiy voqealarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Tarix darslari faqat ma’lumotni qayta takrorlash emas, balki o‘quvchilarni manbalarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va obyektiv xulosa chiqarishga o‘rgatishi lozim. Tarixiy voqealarni bir tomonlama talqin qilish emas, balki ularni xolis va turli manbalar asosida baholash o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi.



Innovatsion yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli manbalar va interaktiv metodlar orqali tarix darslarini jonli va ta'sirchan qilish mumkin. Virtual ekskursiyalar, 3D vizualizatsiya, multimediya resurslari va onlayn platformalar yordamida o'quvchilar tarixiy voqealarni faqat eshitish yoki o'qish bilan cheklanmay, balki ko'z bilan ko'rish va amalda tajriba qilish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Tarix ta'limi axloqiy tarbiya, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni uyg'un tarzda qo'llash orqali zamonaviy talablarga javob berishi lozim. Bunday yondashuv o'quvchilarning tarixiy voqealarga nisbatan chuqurroq tushunchasini shakllantirish bilan birga, ularning jamiyatda faol va ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish murakkab va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Shu sababli, bu jarayonni aniq maqsadlar va vazifalar asosida tashkil etish muhimdir. Tarix o'qituvchisining jamiyat oldidagi mas'uliyati yuqori bo'lgani sababli, uning shaxsiy va professional sifatlarini zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasining maqsadi – ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchining shaxsiy, axloqiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishdir. Buning uchun ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiyatiga qo'yiladigan talablar, metodik yondashuvlar va pedagogik tajribalar muntazam ravishda takomillashtirilishi kerak.

Zamonaviy tarix o'qituvchisini shakllantirish jarayonida bir nechta asosiy vazifalar mavjud. Birinchi navbatda, tarix fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni o'rganish va umumlashtirish muhim. Bu talablar ta'lim jarayoniga, zamonaviy pedagogik tendensiyalarga va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga asoslanishi kerak. Shundan kelib chiqib, tarix o'qitish metodikasi va pedagogika nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, zamonaviy tarix o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini belgilash, ularni muntazam takomillashtirib borish va kadrlar tayyorlash tizimiga integratsiya qilish zarur. O'qituvchilarni tayyorlashda jamiyatning kelajakdagi talablarini hisobga olish, fan rivojlanishiga oid an'ana va yo'nalishlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarga kasbiy moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak.

Zamonaviy tarix o'qituvchisini shakllantirishda nazariya va amaliyot uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Tarix ta'limida nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'liq holda o'zlashtirilishi kerak, bu esa ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quv jarayonining mazmunli va qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, tarix o'qituvchilari xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak, chunki xalqaro manbalardan foydalanish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda interaktiv o'qitish metodlarini qo'llash, virtual ekskursiyalar, multimediya resurslaridan foydalanish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

## Conclusion

Zamonaviy o'qituvchi konsepsiyasini shakllantirish orqali ta'lim jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi. Bo'lajak o'qituvchilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish, pedagogik mahoratni rivojlantirish va o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ular xalqaro manbalardan samarali foydalanish, mustaqil izlanish va o'quv jarayonini ijodiy tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa, zamonaviy ta'lim tizimida tarix



o'qituvchisining roli faqat ma'lumot yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axloqiy qadriyatlarga hurmat va mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mukammal ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan bo'lishi lozim. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ta'limdagi innovatsiyalar tarix o'qituvchisining sifatlarini yangi talablarga moslashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki axloqiy va intellektual yetakchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu konsepsiya ta'lim sifati, tanqidiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishni maqsad qilgan holda, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yo'naltirilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arislanov I.T. The Role of Physical Education of Students in the Educational-Training Process at Universities // *International Journal of Formal Education*. – 2023. – Vol. 2. – No. 5. – pp. 274-280.
2. Arislanov I.T. Improving the Physical Fitness of High-Level Mini Football Players // *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*. – 2022. – Vol. 2. – No. 10. – pp. 100-103.
3. Arislanov I.T. The Importance of Physical Education of Students in the Educational Process of Universities // *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*. – 2022. – Vol. 2. – No. 10. – pp. 87-90.
4. Arislanov I.T. Methods of Developing Physical Fitness and Speed Power in Handball Competitions // *Bulletin of Science*. – 2022. – Vol. 1. – No. 4 (49). – pp. 243-247.
5. Arislanov I.T. The Interaction of Physical Nature and Sports in the Development of Physical and Spiritual Qualities of a Person // *Bulletin of Science*. – 2022. – Vol. 1. – No. 4 (49). – pp. 238-242.
6. Arislanov I.T. Monitoring the Physical Preparation of Athletes Engaged in Mini Football // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2021. – Vol. 2. – No. 12. – pp. 302-306.
7. Arislanov I.T. Peculiarities of Demonstrating Endurance in Mini Football // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2021. – Vol. 2. – No. 1. – pp. 681-686.
8. Arislanov I.T. Tactical Training of Qualified Mini-Football Players Using Special Exercises: The State of the Problem and Prospects for its Solution // *Fan-Sportga*. – 2020. – No. 2. – pp. 17-20.
9. Arislanov I.T. The Goals and Objectives of Developing Football Sport // *Teacher's Continuous Education Scientific-Methodological Journal*. – Vol. 5. No. 5/1. – pp. 385-387.
10. Arislanov I.T. Effectiveness of Improving the General Physical Special Training of High-Level Female Mini-Football Players // *Dene Tárbiyası Hám Sport Xabarshısı*. Vol. 2. – pp. 67-73.
11. Arislanov I.T. Issues and Solutions for Further Development of Sports Among Women in Our Country, with a Focus on Women's Football // *bestscience.us*. – Vol. 1. – pp. 70-74.
12. Arislanov I.T. Notable Characteristics of Women's Participation in Sports in Uzbekistan // *bestscience.us*. – Vol. 1. – pp. 82-86.
13. Erdonov O.L., Mahmudov V.V., Arislanov I.T. Mini-Football Competitions as an Effective Means of Physical Education for Technical University Students // *Young Scientist*. – 2015. – No. 3. – p. 886.



14. Kurbnov I.K. Factors Affecting Handball Training Preparation: Developing Speed and Agility in Athletes at Competitions // *Bulletin of Science*. – 2021. – Vol. 1. – No. 6-1 (39). – pp. 305-310.
15. Kurbnov I.K. Effective Movements in Competitive Activities of Highly Qualified Handball Players.

